



TA'LIMDA TILLARNI O'QITISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI



YEVROPA VA TURKIY TILLAR KAFEDRASI

O'ZBEK VA RUS TILLARI KAFEDRASI

**TA'LIMDA TILLARNI O'QITISHNING
MUAMMO VA YECHIMLARI
(ПРОБЛЕМЫ ЯЗЫКОВОГО ОБУЧЕНИЯ
И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ/
PROBLEMS OF LANGUAGE LEARNING
AND WAYS TO SOLVE THEM)**

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TO'PLAMI



2026-YIL
4-IYUN



TOSHKENT
2026

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Yevropa va turkiy tillar kafedrası hamda O'zbek va rus tillari kafedrası tomonidan 2026-yil 4-iyunda o'tkazilgan **“Ta’limda tillarni o’qitishning muammo va yechimlari (проблемы языкового обучения и пути их решения// problems of language learning and ways to solve them)** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to’plami JIDU Ilmiy muvofiqlashtiruvchi kengashning 2026–yil 26-iyundagi 24–sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

“Ta’limda tillarni o’qitishning muammo va yechimlari (проблемы языкового обучения и пути их решения// problems of language learning and ways to solve them) mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to’plami // – Toshkent: JIDU, 2026. – 396 bet.

Mas’ul muharrir:

O'zbek va rus tillari kafedrası mudiri, dotsent
Yevropa va turkiy tillar kafedrası mudiri,
dotsenti, f.f.n
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim ofisi boshlig’i, s.f.n.

M.Abduraxmanova

V.Mamatkasimova

M. Siddiqova

Taqrizchilar:

P.Nishonov – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti fransuz tili (amaliy fanlar) kafedrası professori, f.f.n.

Sh.U.Narmatova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining O'zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n.

Ushbu ilmiy–amaliy konferensiyaning maqolalarini tahlil qilish va chop etishga tavsiya etish uchun tahririyat–noshirlik guruhi:

Sh.A. Xasanova – Yevropa va turkiy tillari kafedrası katta o’qituvchisi, f.f.f.d.(Phd)

G.Yu.Rofiyeva – Yevropa va turkiy tillari kafedrası katta o’qituvchisi, f.f.f.d.(Phd)

MUTAXASSISLIK TILINI O‘QITISHNING LINGVODIDAKTIK VA KOMMUNIKATIV STRATEGIYALARI

V.A. Mamatkasimova

f.f.n., dotsent

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti,

Yevropa va turkiy tillari kafedrası mudiri

Email: vmamatkasimova@uwed.uz

Tel: +998 71 267 08 04

Annotasiya

Ushbu maqolada mutaxassislik tilini o‘qitishning lingvodidaktik va kommunikativ strategiyalari tahlil qilingan. Til ta’limining nazariy asoslari sifatida didaktika va lingvodidaktika tushunchalari yoritilgan hamda ularning mutaxassislik tilini o‘qitish jarayonidagi ahamiyati asoslangan. Shuningdek, kommunikativ yondashuvning mazmuni, kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish omillari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni ko‘rib chiqilgan. Maqolada mutaxassislik tili umumiy tilning kasbiy maqsadlarga yo‘naltirilgan funksional shakli sifatida talqin qilingan. Mutaxassislik tilini o‘qitish samaradorligini oshirishda autentik materiallar, vazifaga asoslangan ta’lim, raqamli ta’lim vositalari va kommunikativ strategiyalarni kompleks qo‘llashning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: lingvodidaktika, mutaxassislik tili, kommunikativ yondashuv, kommunikativ kompetensiya, kasbiy muloqot, ta’lim strategiyalari, raqamli texnologiyalar, autentik materiallar.

Abstract

This article analyzes linguodidactic and communicative strategies in teaching language for specific purposes. The study examines the concepts of didactics and linguodidactics as theoretical foundations of language education and substantiates their role in teaching professionally oriented language. Particular attention is paid to

the communicative approach, factors influencing the development of professional communicative competence, and the role of modern pedagogical technologies. The study interprets language for specific purposes as a functional form of general language adapted to professional needs rather than as an independent linguistic system. The article highlights the importance of authentic materials, task-based learning, digital educational tools, and the integrated application of communicative strategies to improve teaching effectiveness.

Keywords: linguodidactics, language for specific purposes, communicative approach, communicative competence, professional communication, teaching strategies, digital technologies, authentic materials.

Hozirgi globallashuv va xalqaro kasbiy muloqot sharoitida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida chet tillarini o'qitish mazmuni va metodikasiga bo'lgan talablar sezilarli darajada o'zgarmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimida tilni faqat grammatik qoidalar va leksik birliklar majmuasi sifatida emas, balki kasbiy faoliyatni amalga oshirish vositasi sifatida o'rgatish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan mutaxassislik tilini o'qitishning lingvodidaktik va kommunikativ strategiyalarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayonining nazariy asoslarini o'rganishda didaktika muhim o'rin tutadi. "Didaktika" atamasi ilk bor nemis pedagogi Volfgan Ratke tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u o'qitish san'ati sifatida talqin qilingan. Keyinchalik Ya.A. Komenskiy mazkur tushunchani "barchaga har tomonlama bilim berishga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi va san'ati"⁸ sifatida izohlagan. XIX asrda I.F. Gerbart didaktikani o'qitish orqali shaxsni tarbiyalashga qaratilgan yaxlit pedagogik nazariya darajasiga ko'tardi⁹. Zamonaviy pedagogikada didaktika ta'lim va bilim

⁸ Коменский Я.А. Великая дидактика (Didactica Magna) // Избранные педагогические сочинения: в 2 т. – М.: Педагогика, 1982. – Т. 1. – С. 242.

⁹ Герbart И.Ф. Общая педагогика, выведенная из целей воспитания / пер.с нем. – М.: Учпедгиз, 1940. – С. 72-85.

berish jarayonlari, ularning maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari hamda natijalarini o'rganuvchi fan sifatida qaraladi.

Didaktikaning asosiy vazifasi ta'lim jarayonining qonuniyatlarini aniqlash, ta'lim mazmunini belgilash hamda samarali o'qitish usullarini ishlab chiqishdan iborat. Shu bilan birga, u ta'lim jarayonida "nimaga o'qitish", "qanday o'qitish", "qachon", "qayerda", va "kimni o'qitish" kabi savollarga ilmiy yechim topishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv mutaxassislik tilini o'qitish jarayoni uchun ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mutaxassislik tilini o'qitishda lingvodidaktik yondashuv ta'lim mazmunini kasbiy ehtiyojlarga moslashtirishga qaratilsa, kommunikativ strategiyalar talabalarda haqiqiy muloqot muhitiga yaqinlashtirilgan sharoitda nutqiy kompetensiyalarni shakllashtirishni nazarda tutadi. Bunda o'quv jarayoni talabalarning kasbiy muloqot qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash hamda amaliy faoliyatga tayyorgarligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – mutaxassislik tilini o'qitishning lingvodidaktik asoslarini tahlil qilish hamda kommunikativ strategiyalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini yoritishdan iborat.

Tillarni o'qitish jarayoni murakkab, ko'p qirrali va ko'p omilli xususiyatga ega bo'lib, uning qonuniyatlarini faqat bitta fan doirasida to'liq tushuntirish mushkul. Tilni o'zlashtirish jarayoni nafaqat llingvistik bilimlarni egallash, balki shaxsning kommunikativ, kongnitiv va ijtimoiy xususiyatlarini shakllantirish bilan ham bog'liq. Shu sababli zamonaviy metodik tadqiqotlarda intergrativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy til o'qitish nazariyasida metodikaning metodologik kompleksligi g'oyasi shakllangan bo'lib, unga ko'ra til ta'limi murakkab, ko'p qatlamli va integrativ tizim sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv til o'qitish jarayonini faqat bir fan doirasida emas, balki lingvistika, pedagogika, psixologiya, psixolingvistika va lingvodidaktika kabi turli ilmiy sohalarning o'zaro uzviy bog'liqligi va

hamkorligi asosida o'rganishni nazarda tutadi.¹⁰ Bu kabi interdisciplinar yondashuvning ilmiy asoslari L.B. Sherba tomonidan ilgari surilgan g'oyalar bilan uyg'un bo'lib, u tilni o'rganish va o'qitishda turli fanlar integrasiyasining zarurligini alohida ta'kidlagan.

Tilni o'quv sharoitida o'zlashtirish jarayoni psixologlar, tilshunoslar, psixolingvistlar va metodistlar tomonidan o'rganiladi. Biroq mazkur jarayonning to'liq mexanizmini anglash uchun uni faqat bir fan nuqtai nazaridan emas, balki integrativ va umumlashtiruvchi yondashuv asosida tahlil qilish talab etiladi. Ana shunday integrativ vazifani lingvodidaktika bajaradi. U tilni o'zlashtirish mexanizmlarini o'rganish bilan birga, ta'lim sharoitida ushbu jarayonni samarali boshqarish tamoyillarini ham ishlab chiqadi.

Zamonaviy til o'qitish nazariyasida metodik tizimning konseptual tuzilmasi uch asosiy komponentga ajratiladi: metodologiya, lingvodidaktika va texnologiya. Ushbu tizimda lingvodidaktika umumiy nazariy asos vazifasini bajaradi.

“Lingvodidaktika” atamasi ilmiy muomalaga akademik N.M. Shanskiy tomonidan kiritilgan bo'lib, u dastlab tilni o'quv maqsadlarida tavsiflash bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan. Bunda tillarni o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish, til mazmuni va tuzilishini aniqlash, o'qitish uchun til minimumlarini ishlab chiqish kabi vazifalar nazarda tutilgan.¹¹

Lingvodidaktika va metodika o'rtasidagi munosabatga nisbatan turli qarashlar mavjud. Ayrim olimlar ushbu tushunchalarni tenglashtirsa, boshqalar ularni mustaqil ilmiy sohalar sifatida talqin qiladi. Zamonaviy yondashuvga ko'ra, lingvodidaktika til ta'limining umumiy nazariy asoslarini ishlab chiqsa, metodika muayyan tilni aniq o'qitish sharoitida amalga oshirish qonuniyatlarini belgilaydi.

Shundan kelib chiqib, lingvodidaktikaning asosiy kategoriyalari sifatida ta'lim maqsadi, mazmuni, tamoyillari, usullari, vositalari, ta'lim jarayoni, o'quv faoliyati va ta'lim natijalari qoraladi. Mutaxassislik tilini o'qitishda aynan ushbu

¹⁰ Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л.: Наука, 1974.

¹¹ Шанский Н.М. О лингводидактике и её месте в системе наук // Лингвистика и методика преподавания языков: сб. науч. тр. – М.: Наука, 1983. – С. 3-15.

kategoriyalar ta'limning kasbiy yo'naltirilganligi, kommunikativ samaradorligi va amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Demak, mutaxassislik tilini o'qitishning lingvodidaktik asoslari ta'lim jarayonini ilmiy tashkil etish, talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish hamda zamonaviy ta'lim ehtiyojlariga mos o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish uchun nazariy poydevor vazifasini bajaradi.

Zamonaviy til ta'limida kommunikativ yondashuv ustuvor metodologik tamoyillardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi talabalarda til tizimi haqida nazariy bilimlarni shakllantirish emas, balki ularni real muloqot sharoitida samarali qo'llash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Ayniqsa, mutaxassislik tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunda til kasbiy faoliyatni amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Kommunikativ yondashuv nazariyasiga ko'ra, til o'rganish jarayoni muloqot orqali amalga oshirilishi lozim. Ushbu yondashuv ta'lim mazmunini hayotiy va kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtirish, talabalarni faol ishtirokchi sifatida jalb qilish hamda nutqiy faoliyatning barcha turlarini integrasiyalashni nazarda tutadi. Bunda talaba tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil ravishda ma'no yaratuvchi sub'ekt sifatida qaraladi.

Mutaxassislik tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning asosiy vazifalaridan biri kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish hisoblanadi. Ushbu kompetensiya mutaxassisga kasbiy muhitda axborot almashish, muzokara olib borish, hujjatlar bilan ishlash, kasbiy fikr bildirish va muloqot jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Kommunikativ yondashuvni amalga oshirishda turli strategiyalardan foydalaniladi. Ulardan biri vazifaga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasi bo'lib, unda talabalar muayyan kasbiy vazifalarni bajarish orqali til ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Masalan, muhokama qilish, hisobot tayyorlash, taqdimot o'tkazish yoki mutaxassislikka oid muammolarni muhokama qilish kabi faoliyat turlari shular jumlasidandir.

Yana bir muhim strategiya – keys-metod hisoblanadi. Ushbu usul orqali talabalar real yoki modellashtirilgan kasbiy vaziyatlarni tahlil qiladilar, qaror qabul qiladilar va o‘z nuqtai nazarini asoslashga harakat qiladilar. Bu esa til bilimlari bilan bir qatorda tahliliy fikrlash va kommunikativ faollikni ham rivojlantiradi.

Mutaxassislik tilini o‘qitishda rol o‘yinlar va simulyasiya texnologiyalari ham samarali hisoblanadi. Ular talabalarni kasbiy muloqot muhitiga yaqinlashtirib, tabiiy muloqot sharoitida tildan foydalanish imkonini yaratadi. Masalan, muzokaralar o‘tkazish, xizmat uchrashuvlari, intervyu yoki xalqaro muloqot modellerini tashkil qilish mumkin. Shuningdek, autentik materiallardan foydalanish kommunikativ yondashuvning muhim elementi hisoblanadi. Kasbiy matnlar, ilmiy maqolalar, rasmiy hujjatlar, media resurslar va sohaviy muloqot namunalari talabalarining real til muhitiga moslashuvini ta’minlaydi.

Demak, kommunikativ yondashuv mutaxassislik tilini o‘qitishda til bilimlarini amaliy muloqot ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv asosida qo‘llaniladigan strategiyalar talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish hamda ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, raqamli ta’lim texnologiyalari va elektron resurslardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Onlayn platformalar, multimedia vositalari, virtual muhokamalar va elektron ta’lim muhiti talabalarga mustaqil ishlash imkoniyatini yaratadi hamda ta’lim jarayonining interaktivligini oshiradi.

Mutaxassislik tilini o‘qitish samaradorligini ta’minlashda ta’lim mazmunining xususiyati va til materialini tanlash tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi. Uzoq vaqt davomida mutaxassislik tili umumiy tildan ajralib turuvchi mustaqil til tizimi sifatida qarab kelingan. Biroq zamonaviy lingvodidaktik tadqiqotlarda mazkur yondashuv qayta ko‘rib chiqilmoqda.

J.-J. Rishe ta’kidlashicha, mutaxassislik tilini faqat maxsus leksika yig‘indisi yoki alohida til tizimi sifatida qabul qilish yetarli emas. Muallifning fikriga ko‘ra, mutaxassislik tillari umumiy tilning muayyan ijtimoiy va kasbiy vazifalarga moslashtirilgan shakli hisoblanadi. Shu sababli ularning o‘ziga xosligi faqat

terminologiyada emas, balki matn tuzilishi, muloqot maqsadi, nutqiy harakatlar va kommunikativ vazifalarda ham namoyon bo'ladi.

Mutaxassislik tillarini o'rganishda dastlab asosiy e'tibor leksik xususiyatlarga qaratilgan. Ilmiy va kasbiy muloqotda terminlarning aniqligi va predmetga bog'langanligi muhim deb hisoblangan. Biroq keyingi tadqiqotlar maxsus leksika ham umumiy til kabi semantik o'zgarishlar, ko'p ma'nolilik va ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanishini ko'rsatdi. Demak, mutaxassislik tilini o'qitish faqat terminlarni yodlash bilan cheklanmasligi lozim.

Shuningdek, tadqiqotchilar mutaxassislik tillarining sintaktik jihatdan ham umumiy tildan tubdan farq qilmasligini ta'kidlaydilar. Ilmiy va kasbiy matnlarda ayrim grammatik shakllar — masalan, hozirgi zamon shakllari, majhul nisbat yoki standartlashgan konstruksiyalar ko'proq uchrashi mumkin, ammo bu holat mustaqil grammatik tizim mavjudligini anglatmaydi. Shu sababli mutaxassislik tilini o'qitishda til shakllarini emas, balki ularning kommunikativ vazifasini o'rgatish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, mutaxassislik tilini o'qitish samaradorligini oshirishning muhim lingvodidaktik omillari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- t'lim mazmunini talabalarning kasbiy ehtiyojlariga moslashtirish;
- terminologiyani real kommunikativ vaziyatlarda o'zlashtirish;
- autentik kasbiy matnlardan foydalanish;
- til ko'nikmalarini nutqiy faoliyat bilan integrasiya qilish;
- kommunikativ vazifalarga asoslangan ta'limni tashkil etish.

Shunday qilib, zamonaviy lingvodidaktika nuqtai nazaridan mutaxassislik tilini o'qitish samaradorligi til birliklarini alohida o'rgatish bilan emas, balki ularni kasbiy muloqot jarayonida amaliy qo'llash imkoniyatini yaratish bilan belgilanadi.

Zamonaviy ta'lim makonida mutaxassislik tilini o'qitish masalasi til ta'limi nazariyasi va amaliyotining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv jarayonlari, xalqaro kasbiy hamkorlik va mehnat bozorida raqobatning kuchayishi mutaxassislardan faqat umumiy til kompetensiyasini emas,

balki kasbiy muloqotni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kommunikativ ko'nikmalarni ham talab qilmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, mutaxassislik tilini o'qitish samaradorligini ta'minlashda lingvodidaktika muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Lingvodidaktik yondashuv ta'lim maqsadi, mazmuni, usullari va vositalarini o'zaro uyg'un holda tashkil etish imkonini yaratadi hamda ta'lim jarayonini talabalarning kasbiy ehtiyojlariga moslashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan mutaxassislik tili umumiy tildan ajralgan mustaqil tizim emas, balki muayyan kasbiy va kommunikativ vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan funksional qo'llanish sohasi sifatida qaralishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, kommunikativ yondashuv mutaxassislik tilini o'qitishning amaliy samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekani kuzatildi. Kommunikativ strategiyalar, vazifaga asoslangan ta'lim, keys-texnologiyalar, rolli o'yinlar, autentik materiallar va raqamli ta'lim vositalari talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mutaxassislik tilini o'qitish samaradorligi ta'lim jarayonining kommunikativ yo'naltirilganligi, o'quv materiallarining kasbiy ehtiyojlarga muvofiqligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ta'lim natijalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash bilan uzviy bog'liq.

Shunday qilib, mutaxassislik tilini o'qitishda lingvodidaktik va kommunikativ strategiyalarni kompleks qo'llash talabalarning kasbiy tayyorgarligi, muloqot qobiliyati hamda kelajakdagi professional faoliyat samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Kelgusida mazkur yo'nalishda raqamli ta'lim muhiti va mutaxassislikka yo'naltirilgan til dasturlarining samaradorligini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам. – Москва: АРКТИ, 2004.

2. Московкин Л.В. Теоритические основы современной лингводидактики. – Санкт-Петербург: Златоуст, 2002.
3. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – Москва: Просвещение, 1991.
4. Mangiante J. – M. Le français sur Objectif Universitaire (FOU). – Grenoble: PUG, 2011.
5. Mangiante J. – M., Parpette C. Le français sur Objectif spécifique: de l'analyse des besoins? L'élaboration d'un cours. - Paris: Hachette, 2004.